

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti

**“Bank-moliya xizmatlari” fakulteti
“Bank va jamg‘arma ishi” kafedrası**

**“Himoyaga tavsiya etildi”
kafedra mudiri
Z.D. Niyozov**

KURS ISHI

Mavzu: Markaziy bank va uning funksiyalari.

Bajardi: *BI 111- guruh talabasi*
Fozilov.Z.F.
Ilmiy rahbar: *ass.Tog‘ayev S.S*

Samarqand 2013 yil

Himoya sanasi « ____ » _____ 2013 yil

Bahosi _____

1. _____
2. _____
3. _____

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti

“Bank-moliya xizmatlari” fakulteti

“Bank va jamg‘arma ishi” kafedrası

**«Tasdiqlayman»
kafedra mudiri
Z.D. Niyozov**

« _____ » _____

Kurs ishi bo‘yicha «Bank-moliya xizmatlari» fakultetining «Bank ishi» ta’lim yo‘nalishi
2-bosqich BI-111 guruh talabasi Fozilov Zokirga

Topshiriq

1. Kurs ishining mavzusi: ***Markaziy bank va ularni funksiyalari***

2. Kurs ishi bo‘yicha birlamchi ma’lumotlar olish
manba’lari: _____

3. Kurs ishi rejasi va bajarish muddatlari:

T/R	Kurs ishining rejaları	Bajarilish muddatlari
I	Markaziy bank foliyatining asoslari	
II	Markaziy bankning tijorat banklari bilan uzoro aloqalari.	
III	Tijorat banklari foliyatini tartibga solishda qullaniladigan iqtisodiy miyorlar.	

Topshiriq berilgan sana _____

Kurs ishini topshirish muddati _____

Kurs ishini rahbari _____

Topshiriqni oldim _____

Eslatma: 1. Topshiriq ikki nusxada tuziladi, bir nusxasi talabaga beriladi, ikkinchi nusxasi kafed-rada saqlanadi

2. Ushbu topshiriq kurs ishiga ilova qilinadi

Mavzu; Markaziy bank va uning funksiyalari.

Kirish

1.Markaziy banki faoliyatining asoslari.

2.Markaziy bankning tijorat banklari bilan o`zaro aloqalari.

**3.Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda
qo`llaniladigan iqtisodiy me`yorlar.**

Foydalingan adabiyodlar

Kirish.

Respublikamiz mustaqilligining e`lon qilinishi butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan bozor iqtisodiyoti dastaklarini bizning respublikamizga ham kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuning uchun ham respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug`ildi.

Bank tizimini qayta qurish:

- ikki pog`onali bank tizimini vujudga keltirish. Markaziy emission bank va bevosita xo`jalik subyektlariga xizmat ko`rsatuvchi ixtisoslashgan davlat banklari;
- ixtisoslashtirilgan banklarni to`laligicha xo`jalik hisobiga va o`z-o`zini moliyalashga utkazish;
- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo`ladigan kredit munosabatlari, uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshqalarni o`z ichiga oladi.

O`zbekiston bozor iqtisodiyotiga o`tishning bosqichma-bosqich yo`lini tanlagani bois bank tizimi taraqqiyoti ham quyidagi bosqichlarga ega:

- Birinchi bosqich milliy valyutani muomilaga kiritish uchun asos yaratilgan va ikki pog`onali bank tizimining poydevori qurilgan 1991 yildan 1994 yilgacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Bu davrda mamlakatimizning mustaqil bank tizimini yaratish bo`yicha olib borilgan tadbirlar 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to`g`risida»gi Qonuni asosida amalga oshirildi. Ushbu qonun asosida sobiq SSSR davlat bankining respublika muassasi asosida O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`zildi (1992 yil sentabr) va unga respublikada pul muomilasini tartibga solish, tijorat banklari tizimini vujudga keltirish va tulov tizimini tashkil etish vazifalari yuklatildi.

Ushbu davrda tashkil etilgan maxsus ixtisoslashgan banklar jumlasiga sanoat qurilish banki, kommunal qurilish va sotsial taraqqiyot banki, agrosanoat banki, tashqi iqtisodiy faoliyat banki, jamg'arma banki va boshqa banklarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda bank tizimini tashkil qilishning ikkinchi bosqichi milliy valyuta muomilaga kiritilgan (1994 yil 1 iyul) va ikki pog'onali bank tizimining xuquqiy asoslari yaratilgan 1994-1996 yillarni o'z ichiga oladi.

1994 yil 18 martdagi Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini takomillashtirish va pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi va 1996 yil 25 aprelda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bank tizimini jahon andozalariga yaqinlashtirish sohasidagi mustahkam qonuniy poydevor yaratdi.

Ushbu bosqichning xususiyatlaridan biri 1995 yildan boshlab O'zbekistonda maxsus nobank kredit tashkilotlari (investitsiya kompaniyalari, sug'o'rta kompaniyalari va boshqalar) tashkil qilina boshlandi.

O'zbekiston bank tizimini shakllantirishning uchinchi bosqichi 1997-2000 yillarni o'z ichiga olib u bosqichning asosiy xususiyati banklarni xususiylashtirish va aksiyador – tijorat banklarida boshqaruvning sifatini oshirish, banklar faoliyatida nazoratni ko'chaytirishdan iborat.

Bu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiylashtirish banklari tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1997 yil 24 aprel), «Aksiyadorlik-tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1998 yil 2 oktabr), «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2000 yil 21 mart) farmonlari muhim ahamiyatga ega.

Shu kabi 1999 yil 15 yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, 2000 yil 24 martdagi «Bank tizimini

isloh qilishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida» gi qarorlari qabul qilindi.

Shu bosqichda bank tizimini islox qilish respublika komissiyasi tuzildi, mijozlarga xizmat kursatish sifati oshirildi, kichik va o'rta biznesni yanada rivojlantirishga, ichki nazorat ta'sirchanligini oshirishga e'tibor qaratildi.

Bank tizimi rivojlanishining to'rtinchi bosqichi 2001 yildan boshlandi va uning asosiy xususiyatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Banklar faoliyatini yanada rivojlantirish asosida aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlandi. Agar 2001 yilni boshiga tijorat banklar kapitali 502 mlrd so'mdan 2008 yilni boshiga 1500 mlrd. so'mga, ya'ni 298,8% ga oshgan bo'lsa, shu davrda aholining banklardagi pul jamgarmalari (yangi omonat turlari, yukori foizlar va boshqalar xisobiga) 91,5 mlrd. so'mdan 994,6 mlrd. so'mga yoki 10,9 barobarga oshdi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholining milliy valyutamiz-so'mdagi muddatli va jamg'arma omonatlari bo'yicha to'layotgan o'rtacha foiz stavkalari 16-18 foizni tashkil etmoqda.

2. Tijorat banklarining xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes subyektlariga ko'rsatgan yordami ortdi. Ma'lumki, kichik tadbirkorlik subyektlarining soni yil sayin oshib bormoqda va ularni soni 1.01.2000 yilga 159,7 ming tani tashkil etadi. 2007 yilning boshiga kichik biznes subyektlarining soni 384,1 mingtaga yetdi. Barcha manbaalar tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar 2004 yilni boshiga 354 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2006 yilning boshiga 510,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Kichik biznes subyektlarining YAIMdagi ulushi 2006 yilda 42,1 foizni tashkil etdi, 2007 yilni rejasiga ko'ra uni 45 foizga yetishi muljallangan.

Tijorat banklarining mikro kreditlari tufayli 2007 yilda kichik biznes subyektlari tomonidan 106778 ta yangi ishchi o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich 2006 yilga nisbatan 1,5 barobarga ko'p demakdir.

3. Valyuta munosabatlarini erkinlashtirish bo'yicha ishlar jadallashtirildi. Bu bosqichda milliy valyutani erkin ayirboshlash ishlari bosqichma-bosqich amalga

oshirildi va 2003 yil 15 oktabridan boshlab joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'mning erkin almashtirilishi joriy etildi.

Valyuta munosabatlarini takomillashuvi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yil 11 dekabridagi 557 son qarori bilan «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi qonuniga o'zgartirishlar kiritildi.

Shu asosda respublikamizda bank tizimini taraqqiy etishi va takomillashuvi davom etmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2007 yil 12 iyuldagi «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiy modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari katta ahamiyatga ega.

Umuman, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov o'zbek modeliga munosib bank tizimi asoschisi hisoblanadi.

Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasida O'zbekiston Respublikasining bank tizimini Respublika Markaziy banki boshqarishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq Markaziy bank yuridik shaxs hisoblanadi va u davlatning mutlaq mulkidir.

Markaziy bank - o'z sarf-xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir.

Markaziy bank davlatga qarashli yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan va moliyaviy faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Markaziy bank davlat organi bo'lib, o'z vakolatlari doirasida yagona davlat pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi, qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishdagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega, davlat tomonidan valyutani tartibga soluvchi va

nazoratini olib boruvchi organ hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va fiskal agenti sifatida banklar va boshqa kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi. Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklaridan iborat bo'lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi va asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Asosiy vazifalari:

monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

banklar, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari va garovxonalarni nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta rezervlarini, shu jumladan kelishuv bo'yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish;

davlat byudjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iboratdir.

Markaziy bank milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi o'zining asosiy vazifalarini amalga oshiradi.

Markaziy bank kelishilgan monetar va valyuta siyosatini amalga oshirish jarayonida muomaladagi umumiy pul massasi, milliy pul birligining chet valyutasiga nisbatan ayirboshlash kursini barqarorligi ustidan ma'lum darajada nazorat olib boradi, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini saqlashga yordam beradi.

Markaziy bank o'zining valyuta va kredit operatsiyalari orqali pul massasini oshirish yo'li bilan tovarlar va xizmatlar, yalpi ishlab chiqarish hajmi, eksport va import hajmi hamda aholining bandlik darajasiga ta'sir etadi.

Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish bo'yicha davlat organidir.

Markaziy bank:

O'zbekiston Respublikasi xududida barcha shaxslar uchun ijro etish majburiy bo'lgan valyutani nazorat qilishga doir normativ hujjatlar chiqaradi;

banklar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazish uchun litsenziyalar beradi va litsenziyalarni qaytarib oladi, ularning faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi;

banklar uchun ochiq valyuta mavqei limitlarini va boshqa iqtisodiy normativlarni belgilaydi;

milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash tartibini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini tasarruf etadi va boshqaradi.

Mamlakatda samarali to'lov tizimini ta'minlashda hisob-kitoblar tizimini tashkil etish va ta'minlash vazifasi Markaziy bankning muhim vazifalaridan biridir. To'lovlar O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisob-kitob qoidalarini belgilovchi umummajburiy normativ hujjatlar qabul qiladi, mazkur qoidalarining bir xilda qo'llanilishi respublika hududida hisob-kitoblarning uzluksiz va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Hisob-kitoblar tizimini samaradorligini ta'minlashda Markaziy bank doimiy ravishda zamonaviy texnika va texnologiyalar negizida hisob-kitoblarning yangi vositalarini amalga kiritish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi, iste'molchilar - aksionerlar, investorlar, omonatchilar, auditor-lar, kreditorlar, chet el korxonalari, tashkilotlar va banklarni moliyaviy va iqtisodiy axborotlar bilan ta'minlash uchun

xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalaridan biri bank faoliyatini tartibga solish, banklar va boshqa kredit tashkilotlarini nazorat qilish hisoblanadi. Bu bank tizimining barqarorligini saqlash, aktsionerlar, omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilish uchun zarurdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda eng asosiy vositalardan biri banklar va boshqa kredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashdir. Litsenziyalashdan maqsad - bank va kredit xizmatlari bozorida benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lgan shaxslar tomonidan boshqariladigan, bank-moliya tizimiga bo'lgan aholining ishonchini oshirishga xizmat qiladigan moliyaviy barqaror tashkilotlar faoliyat yuritishini ta'minlashdan iborat.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasining monetar hamda valyuta siyosatini amalga oshirish uchun, shuningdek xalqaro operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni ta'minlash uchun etarli bo'lgan darajada xalqaro re-zervlarni saqlab turilishiga yordam beradi.

“O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonunning 4-moddasida Markaziy bank uchun taqiqlangan faoliyat turlari belgilangan.

Bunda Markaziy bank:

moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanishga;

tijorat faoliyati bilan shug'ullanishga;

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankining, «Mikrokreditbank» aktsiyadorlik tijorat bankining, shuningdek Markaziy bank faoliyat yuritishini ta'minlovchi korxonalar va tashkilotlarning kapitallarida ishtirok etishini istisno etganda, banklar va boshqa yuridik shaxslarning kapitallarida qatnashishga haqli emas.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatiga hisobdordir va bu uning ish faoliyatining alohida xususiyatidir. Xalqaro amaliyotda ham markaziy banklar milliy pul birligining ichki va tashqi barqarorligi uchun

javobgar, o'zining parlamenti oldida hisob beradi, lekin o'z faoliyatida parlamentga bo'ysunmaydi.

Oliy Majlis Senati Markaziy bankning yillik hisobotini, shuningdek mustaqil auditorning xulosasini ko'rib chiqadi.

Shu bilan birga, Markaziy bank har yili pul-kredit sohasida va monetar siyosatning asosiy yo'nalishlaridagi joriy vaziyat to'g'risida hisobot chop etadi.

“O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir.

Davlat Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, basharti, ular o'z zimmlariga bunday majburiyatlarni olmagan bo'lsalar yoki qonunlarda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

Yuqorida ta'kidlangan Qonunning 7-moddasi Markaziy bank o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar ijro etishi majburiy bo'lgan normativ hujjatlar chiqarishini belgilaydi.

Markaziy bankning vakolatlari

Markaziy bankning oliy organi uning Boshqaruvidir.

Markaziy bank Boshqaruvi quyidagi vakolatlarga ega:

monetar siyosatning yo'nalishlarini, shu jumladan, Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari ko'lami, Markaziy bankning hisob va ssuda berishdagi foiz stavkalari hamda banklarning Markaziy bankdagi majburiy rezervlari normasini belgilaydi;

Markaziy bankning normativ hujjatlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki masalasini hal qiladi;

banknotlar va tangalarning nominal qiymati va namunalarini, shuningdek pul belgilarini muomaladan chiqarish shartlarini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi hukumatiga beriladigan ssudalar miqdori va shartlarini tasdiqlaydi;

banklar uchun iqtisodiy normativlarni va kredit uyushmalari mikro-kredit tashkilotlari hamda garovxonalar uchun moliyaviy operatsiyalar o'tkazish qoidalarini tasdiqlaydi, shuningdek ularga rioya etilishini ko'rib chiqadi;

bank faoliyati bilan shug'ulanish uchun litsenziyalar berish va ularni chaqirib olish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyati, shuningdek qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarish litsenziyalanishini amalga oshiradi;

Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini belgilaydi;

Markaziy bank muassasalari hamda korxonalarini tashkil etadi, qayta tuzadi va tugatadi;

Markaziy bank xarajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning yillik va moliya hisobotlarini ko'rib chiqadi;

Markaziy bankning tarkibiy bo'linmalari, muassasalari va korxonalari rahbarlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bank tarkibiy bo'linmalari, uning muassasalari va tashkilotlari rah-barlarining hisobotlari hamda ma'ruzalarini tinglaydi;

Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, ishdan bo'shatish, ularning mehnatiga haq to'lash shartlarini, shuningdek ularning kreditlar olishi va aktsiyalar sotib olishi tartibini qonun hujjatlariga muvofiq belgilaydi;

Markaziy bank vakolati doirasidagi boshqa masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

Shuningdek, “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq Markaziy bank Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi, shuningdek ular tomonidan ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat

organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi ustidan monitoring hamda nazorat qiladi.

Markaziy bank banklar va kredit uyushmalarini ro'yxatga oladi, shuningdek bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi, kredit uyushmalari, mikrocredit tashkilotlari, garovxonalar faoliyatini va qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chikarishni litsenziyalaydi.

Markaziy bank Banklarni davlat ro'yxatiga olish daftari, kredit uyushmalari, mikrocredit tashkilotlari, garovxonalarga hamda qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishga berilgan litsenziyalar reestrini yuritadi.

Markaziy bank:

bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va bank statistika hisobotini yuritish, yillik hisobotlar tuzish yuzasidan banklar uchun majburiy bo'lgan qoidalarni;

moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish yuzasidan kredit uyushmalari va mikrocredit tashkilotlari uchun majburiy bo'lgan qoidalarni;

faoliyat va operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan garovxonalar uchun majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi.

Markaziy bank:

banklar, kredit uyushmalari mikrocredit tashkilotlari va garovxonalarining hisoboti va boshqa hujjatlarini olish va tekshirish, ularning faoliyati, shu jumladan operatsiyalari to'g'risida axborot so'rash hamda olish;

olingan axborot yuzasidan izoh talab qilish;

banklar va kredit uyushmalarining, kredit uyushmalari va mikrocredit tashkilotlarining ularning filiallari va ular bilan uzviy bog'langan shaxslarning, shuningdek garovxonalarning faoliyatini tekshirish, qoidabuzarlarga nisbatan sanksiyalar qo'llash;

banklarning ichki auditiga doir talablarni belgilash;

bank aktivlari sifatini tasnif qilish va aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar o'rnini qoplash uchun shunga monand rezervlar yaratishga doir talablarni belgilash;

ishonchsiz aktivlarni hisobdan chiqarish shartlari va taomilini aniqlash;

banklar, kredit uyushmalari mikrocredit tashkilotlari va garovxonalarga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborish;

Markaziy bank auditorlardan Markaziy bankning normativ hujjatlariga, shu jumladan tartib va uslubiyotlariga rioya etishlarini talab qilishga, shuningdek ulardan bank auditi bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni bevosita olishga haqli.

Markaziy bank maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda banklar, kredit uyushmalari, mikrocredit tashkilotlari va garovxonalar uchun majburiy bo'lgan ichki nazorat qoidalarini tasdiqlaydi.

Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlarni, shu jumladan:

kapitalning monandlik koeffitsientini;

bir qarz oluvchi yoki bir-biriga dahldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko'p miqdorini;

yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko'p miqdorini;

likvidlilik koeffitsientlarini;

aktivlarni tasniflash va baholashga doir talablarni, shuningdek bunday tasniflar asosida bankning operatsiya xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va harakatsiz qarzlariga qarshi tashkil etiladigan zahiralarini shakllantirishni;

qarzlariga doir foizlarni hisoblab chiqarish va ularni bank daromadlari hisobvarag'iga kiritishga doir talablarni;

ochiq valyuta mavqei limitlarini belgilaydi.

1. Markaziy banki faoliyatining asoslari

Markaziy bank – kredit tizimining bosh banki bo`lib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi.

Birinchi markaziy banklar bundan qariyb uch yuz yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bular 1668 yilda tashkil bo`lgan Shved Riks Jiro banki, 1694 yilda tashkil qilingan Angliya banklaridir.

Yevropa mamlakatlarida Markaziy banklar ancha kechroq, asosan XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat ko`rsata boshlagan. AQShda Markaziy bank funksiyasini 12 federal rezerv bankidan iborat federal rezerv tizimi bajaradi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1992 yilning sentabr oyidan sobiq SSSR davlat bankining Respublika bo`limi zaminida paydo bo`lgan.

Jaxon amaliyotida Markaziy banklar vujudga kelishining ikki asosiy yuli mavjud:

Birinchi yul – o`zoq davr mobaynida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida ularni Markaziy bankka aylanishi. Shu holat 1844 yilda Angliyada, 1848 yilda Fransiyada, 1874 yil Ispaniyada, 1875 yilda Germaniyada (Reyxsbank), 1893 yilda Italiya Markaziy banklari tashkil bo`lishi bilan bog`liq.

Ikkinchi yo`l – bir yo`la Markaziy bank – emission markaz sifatida tashkil qilingan banklar. Bunday banklarga AQShning federal banklari, 1913 yildan tashkil etila boshlangan Lotin Amerikasi mamlakatlari banklari, Avstriya Markaziy banki va boshqalarni kiritish mumkin.

Markaziy bank iqtisodiyotni boshqarishda va bank tizimini nazorat qilishda muhim rol o`ynaydi. Shuning uchun ham uning faoliyati uning Ustaviga nisbatan yuqori kuchga ega bo`lgan qonun bilan tartibga solinadi. Markaziy bank alohida statusga ega bo`lgani holda butun bank tizimini, davlat organlarini nazorat qilib uning faoliyati, vazifalari va yuklatilgan majburiyatlar uni tijorat faoliyati chegarasidan chiqadi.¹

Respublikamizda Markaziy bank to`g`risidagi qonun 1995 yilni 21 dekabrda qabul qilinib 2002 yilda unga ayrim o`zgartirishlar kiritilgan.

¹

Qonunning 3-moddasiga kura Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutani barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Valyuta barqarorligi tushunchasi pul massasi barqarorligini, baho va milliy valyuta almashuv kursini barqarorligini anglatadi.

Qonunning 6-moddasi Markaziy bankning mustaqil ekanligiga bag'ishlanib u quyidagilarda ko'rinadi:

- Markaziy bank xukumatning iqtisodiy siyosati chegarasida faoliyat ko'rsatadi. Markaziy bank xukumat siyosatidan o'tib o'zining alohida siyosatini yurgizmaydi.

- Markaziy bankning mustaqilligi unga yuklatilgan vazifalar chegarasida amalga oshadi. Bu mamlakatdagi pul-kredit siyosatini belgilashda, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda, bank likvidligi nisbati, almashuv kurslarini belgilash bilan bog'liq boshqa ishlarda ko'rinadi.

Markaziy bank o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini ta'minlash uchun tegishli tarkibni tashkil etadi. Qonunning 8-moddasiga binoan Markaziy bank Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti, viloyat markazlari va Toshkent shahrida Bosh boshqarma va xizmat bo'limlariga ega.

Qonunning 15-moddasiga binoan Markaziy bankning Oliy Organi bo'lib bank Pravleniyasi hisoblanadi. Bank Pravleniyasi 11 kishidan iborat bo'lib uning tarkibiga Markaziy bank raisi, uning muovinlari va bank asosiy bo'limlari boshliqlari kiradi. Bank Pravleniyasining raisi bo'lib Markaziy bank Raisi hisoblanadi. Pravleniya a'zolari Markaziy bank raisi tavsiyasiga binoan Oliy Majlis kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Qonunning 5-moddasiga kura Markaziy bank o'z faoliyati natijalari bo'yicha Respublika Oliy Majlisiga bo'ysunadi.

Oliy Majlis:

- Respublika Prezidentining tavsiyasiga binoan Markaziy bank raisini tayinlaydi va vazifasidan bo'shatadi.

- Yillik xisobat va auditor xulosasini ko'rib chiqadi.

Qonunning 44-moddasiga binoan Markaziy bank quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Banknotalar (naqd pullar) emissiyasi Markaziy bankning qadimgi va muhim funksiyasidir. Qonunning 38-moddasiga ko'ra muomilaga naqd pullarni chiqarish va undan olish faqat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 6 apreldagi «Pul massasi oshishini chegaralash va moliyaviy intizomni ta'minlash javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni naqd pullarni bankka o'z vaqtida qaytishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda muomilada naqd pul muomilasini chegaralash maqsadida plastik kartochkalardan keng foydalanish va boshqa choralari ko'rilmogda.

2. Tijorat banklari kassa rezervlarini to'plash va saqlash. Qonunning 28-moddasida bu holat o'z aksini topgan bo'lib minimal zaxiralar bu tijorat banklari resurslarining Markaziy bankda saqlanishi zarur bo'lgan qismidir. Majburiy rezerv miqdori tijorat bankining yig'ilgan resurslariga nisbatan foizda belgilanadi. Minimal zahira jamg'arma turiga, uning hajmiga, bankning joylashgan o'rniga bog'liq bo'lgan holda turli mamlakatlarda turlicha. Jumladan, Yaponiyada minimal rezervlar stavkasi 2,5%, AQSH da 12%, Germaniyada 12,1%, Portugaliyada 17%, O'zbekistonda 2005 yildan 15%. Markaziy bank bundan pul muomilasini muvofiqlashtirishda foydalanadi.

3. Oltin-valyuta zahiralarini saqlash. Bu mamlakat to'lov balansi defitsitini qoplash va milliy valyuta kursini barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda 2006 yilda oltin-valyuta zahiralar 35%ga oshib, tashqi savdo ijobiy qoldig'i 1,445 mlrd. AKSH dollariga yetdi va oltin-valyuta zaxiralarimiz respublikamizning 8 oylik importini qoplashga yetadi.

4. Tijorat banklarini kreditlash. Kredit muassasalari depozitlarini markazlashuvi kredit operatsiyalarini kengaytirish uchun baza hisoblanadi. 2006 yilda banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga milliy valyutada berilgan

kreditlar 4095,4 mlrd. so'mni tashkil etdi, uning 77,8% i uzoq muddatli kreditni tashkil etadi.

5. Davlat banki sifatida xukumat uchun kredit berish va hisob-kitob operatsiyalarini bajarish. Bu markaziy bankda xukumat tashkilotlari va muassasalarining hisobvaraqlarini yuritilishida, shu hisobvaraqlar orqali qimmatli qog'ozlar, uzoq va qisqa muddatli kreditlar, davlat obligatsiyalarini sotib olish, chet el valyutasi bo'yicha va boshqa operatsiyalarni amalga oshirilishi bilan bog'liq. Markaziy bank xukumatining fiskal (xazina) vakili vazifasiga muvofiq xukumat organlari hisob-varaqlarini yuritar ekan (47 modda), xukumatning moliya operatsiyalarini amalga oshirishda kumaklashadi, budjet kirimlari va chiqimlari yuzasidan maslaxatlar beradi.

6. Xisob-kitob va almashuv operatsiyalarini amalga oshirish. Qonunning 40,43 moddalariga binoan Markaziy bank milliy valyutani chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilaydi, uni almashish limitini belgilaydi, respublika xududi va undan tashqarida valyuta operatsiyalarini amalga oshiradi.

7. Pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflyatsiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosati davlatning iqtisodni boshqarish siyosatining bir qismi bo'lib muomiladagi pul massasi, kredit hajmi, foiz stavkalari darajasi va boshqa pul muomilasi kursatkichlarini o'zgartirishi bilan ishlab chiqarish hajmini o'sishi va pasayishiga moslab pul ta'minotini yo'lga kuyadi.

Jumladan, Markaziy bankning pul-kredit siyosati 2007 yilga quyidagicha belgilangan:

1. Iste'mol narxlar indeksining yillik darajasi 5,7% dan oshmasligi.

2. YAIM ni real o'sishi 7,7%.

3. Budjet taqchilligi YAIMning 1,0% dan oshmasligi.

4. Sof tashqi savdo aylanmasini o'sishi va uni ijobiy qoldig'i 2 mlrd. AQSH dollari hajmida bo'lishi.

5. Banklardagi aholi jamg'armalarining qoldig'i 678,3 mlrd.so'mga yetishi va boshqalar.

8. Nazorat funksiyasi. Bu funksiyaga qonunning VIII-bobi 50-54 moddalari bag'ishlangan bo'lib, ularda tijorat banklari faoliyatining nazorati va ularni Markaziy bank bilan o'zaro munosabatlari aks etgan.

Umuman tijorat banklar faoliyati nazorati quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Davlat nazorati – bank tizimidagi qonunchilik asosida, chunki hamma banklar, shu jumladan Markaziy bank ham qonun asosida faoliyat ko'rsatadi.

Yuqori tashkilot nazorati, ya'ni Markaziy bank tomonidan.

Mustaqil tashkilot tomonidan – auditorlik tashkiloti va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning birinchi moddasida ta'kidlanganidek «Bank – bu tijorat muassasasi bo'lib jismoniy va xuquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan to'lovlilik, muddatlilik, qaytarib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi».

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar xuquqiy va jismoniy shaxslarga xizmatlarni ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi pog'onasi hisoblanadi. Xozirgi kunda Respublikamizda 2007 yilni 1iyul holatiga 28 turdagi, shundan 3 ta davlat mulkiga asoslangan, 11 ta aksioner - tijorat, 9 ta xususiy va 5 ta chet el sarmoyasini hissasi bilan tijorat banklari mavjud.

Respublika xududida tijorat banklari o'z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Banklarga litsenziya berish O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqini ximoya

qilish to'g'risida» gi va boshqa qonunlari hamda banklar bo'yicha tegishli me'yoriy xujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarini tashkil qilish 1999 yilni 11 – fevralida qabul qilingan «Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida»gi 630 – sonli Nizom asosida olib boriladi. Ushbu Nizomga asosan tijorat banklari ochiq yoki yopiq aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

Bankni davlat ro'yxatidan utkazish uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida, filiallar ro'yxatga olinayotganda esa ushbu mablag'ning yarmi miqdorida xaq to'lanishi, ustav kapitalining 30 foizidan ortig'i xorijiy shaxslarga tegishli bo'lgan banklar va shu'ba banklarini ro'yxatdan o'tkazishda 5000 AQSH dollariga teng so'mmada xaq to'langanligini tasdiqlovchi va boshqa xujjatlar taqdim etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga asosan bank ustav kapitalini shakllantirishga davlat xokimiyat organlari, jamoa birlashmalari, jamoa fondi mablag'lari, shuningdek kreditga va garovga olingan mablag'lardan foydalanish man etiladi.

«Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan har bir aksiyadorning ustav kapitalidagi ulushi 2002 yilning 1 yanvaridan boshlab ustav kapitali umumiy miqdorining 7 foizidan oshmasligi kerak. Shuningdek banklarning boshqa banklar ustav kapitalida ishtirokiga ruxsat etilmaydi. (shu'ba banklar tashkil etish bundan mustasno). Har bir bank o'z ustavi asosida faoliyat kursatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 – noyabrdagi «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga ko'ra tijorat banklari o'z kapitallarini bir maromda usib borishini ta'minlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash, loyihalarini moliyalashni takomillashtirish va boshqa vazifalar qo'yilgan.


Jumladan, qarorda ko'zda tutilishicha 2008 yilni 1 yanvaridan yangi tashkil etiladigan tijorat banklarining ustav kapitali 5 mln Yevrodan, xususiyl

banklarni ustav kapitali 2,5 mln Yevrodan kam bo'lmagan miqdorga yetkazish ko'zda tutilgan.

Banklar kapitalini ortib borishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi 670-sonli “Banklarning kapitallashuni yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirishdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroridan kelib chiqadi.

Bank faoliyatini tuxtatish va banklarni tugatish «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun ham Markaziy bankning 240 – sonli «Banklarni tugatish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

O'z faoliyatini tuxtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni Davlat ro'yxatiga olish daftaridan chiqariladi. Uni faoliyati tuxtatilganligi matbuotda e'lon qilinadi.



O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining joylashish chizmasi

№	Sana	Nomi
870	16.06.1994	“O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida”
837	20.04.1994	“Eksport-import operatsiyalari bo'yicha valyuta nazoratini ta'minlash chora-

№▼	Sana	Nomi
		tadbirlari to'g'risida”
4524	29.03.2013	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi farmonlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida
4522	26.03.2013	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida
4455	18.07.2012	“Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida”
4453	16.07.2012	“Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”
4430	09.03.2012	"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"
4354	24.08.2011	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ish-bilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
4354	24.08.2011	"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ish-bilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
4296	04.04.2011	“Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
4058	28.11.2008	“Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida”
4057	28.11.2008	“Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
4053	18.11.2008	“Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”
4051	10.11.2008	«Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”
3968	21.02.2008	“Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
3878	18.05.2007	"Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
3831	19.12.2006	"Tijorat banklarining kapitallashtirish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"

№▼	Sana	Nomi
3751	11.05.2006	“O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”
3750	05.05.2006	«Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida
3665	05.10.2005	“Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”
3619	14.06.2005	“Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”
3594	11.04.2005	“To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
3434	25.05.2004	O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
3346	31.10.2003	"Qimmatbaho metallar xarid qilish, saqlash va sotish tizimini takomillashtirish to'g'risida"
3323	01.10.2003	“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi farmonlariga o'zgartishlar kiritish va o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida”
3321	26.09.2003	“O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”
3162	15.11.2002	"Respublika bank kengashini tuzish to'g'risida"
3099	27.06.2002	“O'zbekiston Respublikasida naqd xorijiy valyuta muomalasini tartibga solish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
3047	30.03.2002	"Pul massasi o'sishini cheklash va moliya intizomiga rioya etishmas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"
2773	07.12.2000	“Davlat-tijorat Xalq bankini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
№▼	Sana	Nomi
244	07.09.1991	“O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankini tashkil etish to'g'risida”
2114	19.11.1998	“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida”
2084	02.10.1998	“Aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”
1987	09.04.1998	“Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”
1979	20.03.1998	“Jismoniy shaxslarning naqd xorijiy valyutani olib kelishi va olib chiqib ketishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida”

№▼	Sana	Nomi
1924	09.02.1998	“Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”
1919	19.01.1998	“Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirish borasidagi ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
1871	10.10.1997	“Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
1819	17.07.1997	“Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga bank xizmatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbir to'g'risida”
1816	09.07.1997	“Aylanma mablag'larning saqlanishi va o'z vaqtida to'ldirilishi uchun javobgarlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”
1749	24.04.1997	“Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”
1601	24.10.1996	“Respublikada naqd xorijiy valyuta muomalasini tartibga solish choralari to'g'risida”
1503	08.08.1996	“Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida”
1500	24.07.1996	“Respublikada bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”
1467	31.05.1996	“Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishni va ularning faoliyatini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
1327	20.12.1995	“Aholining omonatlardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida”

Banklarning o'z mablag'lariga – ustav kapitali, rezerv kapitali, maxsus fondlar (moddiy rag'batlantirish va boshqa tashkil etilgan fondlar) va taqsimlanmagan foyda kiradi. Banklarning keyingi yillar balanslarida o'z mablag'lari tarkibida aksiyalar bo'yicha emissiya ustamasi, asosiy vosita va chet el kapitalini qayta baholash so'mmalari ham o'z aksini topgan.

Amaliyotda bank passivlarining 20 foiziga yaqini banklarning o'z mablag'lariga to'g'ri keladi. Bank o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni bank ustav kapitali egallaydi. Banklarning ustav kapitali ularning majburiyatlarini bajarilishining asosi bo'lib xizmat qiladi va u banklar tashkil qilinganda moddiy va pul mablag'laridan tashkil topadi. Bank kreditlari hamda chetdan boshqa pul mablag'larini jalb qilib uni tashkil qilish mumkin emas.

Shu kabi banklarni zaxira kapitali va taqsimlanmagan foydaga tegishli manbalar hisobidan shakllanadi va sarflanadi.

Jalb qilingan mablag`lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. Bo`larga depozitlar, shuningdek kontokorrent va vakillik hisob varaqlaridagi mablag`lar kiradi.

Bank resurslari tarkibida aholining quyilmalari muhim rol uynaydi va u 2007 yilni 1 iyuliga 678,3 mlrd so`mni tashkil etadi.

Banklarning emitentlashgan mablag`lari. Banklar mijozlar mablag`laridan yetarli darajada o`zroqroq foydalanishni amalga oshirishdan manfaatdordirlar. Shu sababli banklar obligatsiya qarzlar, bank veksellari va boshqalarni chiqarish yo`li bilan o`z resurslarining miqdorini ko`paytirib boradilar.

Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog`liq operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Banklarni aktiv operatsiyalarida asosiy o`rinni ularning kredit operatsiyalari egallaydi.

Xozigi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta`minoti sifatida kuchmas mulk, qimmatli qog`ozlar, uchinchi shaxs va sugurta tashkilotining kafolati qabul qilingan.

Tijorat banklarining kreditlash jarayoni quyidagi boskichlarni o`z ichiga oladi:

- Kredit olish uchun mijoz arizasini ko`rib chiqish
- Qarz oluvchining tulovga va kreditga layoqatligini bank tomonidan o`rganish
- Kredit qo`mitasini qarori
- Kredit shartnomasini rasmiylashtirish
- Kredit berish
- Kreditni foizi bilan qaytarilishini bank tomonidan nazorat qilish

Tijorat banklari resurslarining 2002 yilda 66,83 foizi, 2003 yilda 68,08 foizi, 2004 yilda 70 foizi kreditlashga yo`naltirilgan.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag`larini bankga jalb qilish bilan bog`liq operatsiyalari depozit operatsiyalari

deyiladi. Depozit operatsiyalari tijorat banklarining 90 foizgacha passivlari tashkil qilinishi mumkin.

Depozit operatsiyalarining suyektlari bo`lib bir tomondan tijorat banklari, ikkinchi tomondan korxona, tashkilotlar, moliya, sug`urta, investitsion va trast kompaniyalari, xususiy korxonalar, qo`shma, xissadorlik korxonalari, jamoa tashkilotlari, alohida jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Depozit operatsiyalarining obyekti bo`lib extiyojdan ortiqcha pul mablag`lari (quyilmalari) hisoblanadi.

Pul quyuvchilarning toifasiga ko`ra depozitlar bo`linadi:

- yuridik shaxslar (korxona, tashkilotlar va boshqalar) quyilmalari
- jismoniy shaxslar quyilmalari

Mablag`larni olish shakliga ko`ra depozitlar bo`linadi:

- Muddatli depozit mablag`lar
- Talab qilib olgunga qadar depozit mablag`lar
- Aholini jamg`arma mablag`lari

Muddatli depozit mablag`lar bo`linadi:

- 3 oy muddatgacha
- 3 oydan 6 oygacha
- 6 oydan 9 oygacha
- 9 oydan 12 oygacha
- 12 oydan yuqori bo`lgan depozit mablag`lari

Nazariy jihatdan zamonaviy bank tizimida naqd pulsiz aylanishlarning rivojlanishi natijasida dastlabki shakllantirilgan depozitlarni cheklanmagan tarzda bir bankdan ikkinchi bankga utkazish, shu bilan birga tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarni cheksiz oshirish imkoniyati mavjud. Xorijiy nazariyada bu jarayon depozit multiplikatsiyasi (mablag`larni bir bankdan ikkinchi bankga o`tkazilishi) va kredit ekspansiyasi deb nom olgan.

Masalan «A» bankdan dastlabki depozit 1000 birlikni tashkil etsa uning 20 % majburiy zahira sifatida Markaziy bankga o`tkazilsa bankni kredit berish imkoniyati 800 birlikni tashkil qiladi. Bu kredit mijozga berilgandan keyin

boshqa bankda depozitga aylanishi mumkin. Jumladan, ushbu berilgan kredit soʻmmasi «B» bankning mijozi boʻlgan mahsulot yetkazib beruvchining hisob varagʻiga sotuvdan tushum shaklida kelib tushadi. Bunda A bankning krediti B bankda depozitni vujudga keltiradi. B bank bu depozitdan kredit beradigan boʻlsa, majburiy zahirani hisobga olgan holda uning miqdori 640 (800 – 160) birlikka teng boʻladi.

Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari deb tijorat banklarining yirik pul bozorlaridan pul mablagʻlarini jalb qilish, qimmatli qogʻozlar, obligatsiyalarni muomilaga qoʻyish yoʻli bilan mablagʻlarni jalb qilish sohasidagi operatsiyalariga aytiladi.

Jahon banki amaliyotida tijorat banklariga mablagʻlarni jalb qilishning keng tarqalgan nodepozit shakllariga quyidagilar kiradi:

- Banklararo bozordan qarz olish
- Qimmatli qogʻozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish (Repo operatsiyalari)
- Bank akseptlarini sotish
- Tijorat qogʻozlarini chiqarish
- Yevro – dollarlar bozoridan qarz olish
- Kapital notalar, obligatsiyalar chikarish va boshqalar

Nodepozit operatsiyalar bozorda raqobatchilik asosida, vasitachilar (brokerlar) orqali sotib olinadi. Bunda birinchidan mablagʻlarni sotib olish gʻoyasi bankning oʻziga tegishli, ikkinchidan bu gʻoya bankning biror – bir mijozi bilan bogʻliq emas. Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozori mexanizmidan erkin foydalanish xuquqiga ega boʻlgan yirik banklar keng foydalanadilar. Nodepozit mablaglar yirik miqdorda sotib olinadi.

Tijorat banklarining boshqa operatsiyalariga bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalarini kiritish mumkin. Bunda banklar mijozning hisobidan ularning turli topshiriqlarini bajaradilar. Bunday topshiriqlar mamlakat ichida yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga pul utkazish bilan bogʻliq.

Shunday operatsiyalardan biri bo`lib faktorning (inglizcha vositachi) operatsiyasi bo`lib bunda bank mijozning qarzga oid talablarini, ularni yetkazib berish qiymatining 80 foizi shu zahoti to`lash va qolgan qismini kredit uchun foizlar va vositachilik haqini chiqarib to`lash sharti bilan sotib oladi.

Vositachilik operatsiyalarining biri bo`lib trast (inglizcha ishonchli) operatsiyalari hisoblanib u mulkka egalik qilishning eng tarqalgan shakli – aksiya, obligatsiya va pul mablag`larining bir egalikdan (shaxsdan) ikkinchi egalikga (shaxsga) o`tkazishni banklar orqali amalga oshirishni bildiradi. Bu mijoz bilan kelishilgan holda uni mablag`larini boshqarish ishonchini qulga kiritishdir.

Banklar trast operatsiyalarining nafaqat jismoniy shaxslar bo`yicha balki yuridik shaxslar uchun ham amalga oshiradilar.

Jismoniy shaxslar uchun trast bo`yicha merosni boshqarish ishonch va vosiylik bilan bog`liq operatsiyalar bajariladi. Shunday operatsiyalarga tratta (italiyancha utkazma veksel) operatsiyalarini ham kiritish mumkin. Bu kreditorning qarzdorga (odatda bankga) yozma buyrug`i. Bu tashqi savdodagi hisob – kitoblarda qullanilib unda bankning uchinchi shaxs (takdimchi) ga yoki trattani taqdim etganga muayyan so`mmani to`lash ko`rsatiladi.

2. Markaziy bankning tijorat banklari bilan o`zaro aloqalari.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasida “O`zbekiston Respublikasining bank tizimini Respublika Markaziy banki boshqaradi”- deyilgan.

Markaziy bankning tijorat banklari bilan o`zaro aloqalari O`zbekiston Respublikasining “Markaziy bank to`g`risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to`g`risida”gi Qonunlar hamda banklar faoliyatiga tegishli boshqa me`yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Jumladan, “Markaziy bank to`g`risida”gi Qonunning 55-moddasida – “Markaziy bank va banklar bir-biri bilan bo`lgan majburiyatlari bo`yicha mas`uldir, agar ular o`ziga tegishli boshqa majburiyat olmagan bo`lsa” -deyilgan.

Qonunning 56-moddasiga ko`ra Markaziy bankga banklardan depozitlar qabul qilib hisobvaraqlar yuritishga ruxsat berilgan.

Qonunning 57-moddasida –“Markaziy bank banklarga banklararo hisob-klering xizmatini tashkil etishda ko`maklashadi”- deyilgan.

Qonunning 58- moddasida –“Markaziy bank bank tizimi uchun axborot tarmog`ini tashkil etadi”- deyilgan. Markaziy bank o`z vakolati chegarasida tegishli tashkilotlar bilan statistik ma`lumotlarni to`plash, ishlov berish va tarqatish qoidalarini va amaliyoti bo`yicha kelishuvlarda ishtirok etadi.

Qonunning 59-moddasiga binoan Markaziy bankka qarzdorning hisobvaraqlaridagi qoldig`ni va boshqa aktivlari hisobiga talablarni qondirish ustunligi belgilangan va o`zaro munosabatlarga bag`ishlangan Qonunning 60-moddasida- “Markaziy bank qarori va harakati qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin”- deyilgan.

Shu kabi “ Banklar va bank faoliyati to`g`risida”gi Qonunning 44-moddasida Markaziy bank banklar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi deyilgan.

Markaziy bank banklardan axborotlarni talab qilish va ushbu Qonunni bajarilishi yuzasidan boshqa harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega.

Tijorat banklari faoliyatini Markaziy banklari tomonidan nazorat qilish zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy bankning muhim rol o'ynashi bilan asoslanadi, chunki u iqtisodiyot bilan bank tizimi o'rtasida vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Bank nazorati ikki maqsadni :

1. Mijozlar manfaatini har xil mumkin bo'lgan zararlardan himoya qilish;
2. Xatarlarni oldini ola turib moliyaviy bozorning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Markaziy bank tijorat banklar faoliyatini nazorat qilishi quyidagilarda ko'riladi:

1. Bank faoliyatini olib borishda litsenziyalar berish.
2. Banklar hisobotlarini tekshirish.
3. Joylarda tekshirishlar o'tkazgich
4. Bank operatsiyalarini bajarishda tegishli me'yorlarga rioya qilishnishi.

Markaziy bank to'lov, hisob-kitob munosabatlarini tashkil qilish funksiyasini bajara turib moliya va to'lov tizimini barqarorligini ta'minlash, to'lov tizimini samarali bo'lishiga erishish, pul-kredit siyosatini o'tkazish kabi masalalarni hal qilishni o'z oldiga qo'yadi.

3.Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda kullaniladigan iqtisodiy me'yorlar.

Tijorat banklari uchun iqtisodiy me'yorlarning urnatilishi – bu avvalo Markaziy bank tomonidan samarali bank nazoratini olib borishga erishish, tijorat banklari faoliyatida vujudga keladigan muammolarni oldindan aniqlash va barqaror bank tizimini yaratishda muhim vositadir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni xalqaro andozlariga mos ravishda takomillashtirish hamda tijorat banklarining moliyaviy holatiga real baho berishni 1997 yil 22 avgustda tasdiqlangan 10 – sonli «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidolari» asosida olib boradi. Bu qoidalarga ko'ra respublika tijorat banklari faoliyatini baholashning quyidagi me'yorlari tasdiqlangan va ular barcha banklar tomonidan bajarilishi lozim:

Yangidan tashkil etilayotgan va faoliyat kursatayotgan banklarning eng kam ustav jamg'armasi miqdorini o'rnatish

Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti

Bank kapitali bilan uning majburiyatlari o'rtasidagi nisbat ko'rsatkichlari

Bank balansi likvidligi ko'rsatkichi

Bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan xatarning eng katta hajmi

Barcha katta kreditlarga to'g'ri keladigan xatarning eng yuqori hajmi

Bir omonatchiga to'g'ri keladigan xatarning eng katta miqdori

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarda o'z mablag'laridan foydalanish ko'rsatkichi

Daxldor shaxslar bilan ish olib borish

Mavzuning to'rtinchi savolida ta'kidlanganidek yangidan tashkil etilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan banklar ustav jamg'armasining eng kam miqdori 2008 yilni birinchi yanvaridan 5 mln Yevrodan, xususiy banklar bo'yicha esa buyicha 2,5 mln Yevrodan kam bo'lmagan miqdorga yetkazish ko'zda tutilgan.

Kapitalning yetarlilik koeffitsenti quyidagicha aniqlanadi:

bunda K – bank kapitali; A_x – xatarni hisobga olib chamalangan bank aktivlari

Bank kapitali asosiy ikki qismdan – asosiy va qo'shimcha kapitaldan iborat. Bunda asosiy kapitalni umumiy kapitaldagi salmogi 50 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Bank kapitali o'zining xatar darajasiga ko'ra bo'linadi:

Xatardan xoli bo'lgan aktivlar

Minimal xatarli aktivlar

Yuqori xatarli aktivlar

Maksimal xatarga ega bo'lgan aktivlar

Mazkur koeffitsientning minimal miqdori 0,08 ga teng bo'lishi kerak.

Bank kapitali bilan uning majburiyatlari o'rtasidagi nisbat kursatkichi quyidagicha aniqlanadi:

Bunda M – bank majburiyatlari

Bu kursatkich bank majburiyatlarini o'z kapitali bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi va uning eng yuqori miqdori 0,05 ga teng.

Tijorat banklari uchun quyidagi likvidlik koeffitsientlari belgilangan (bank likvidligi deb o'z aktivlarini naqd pul sifatida ishlatish yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan xolda tezda pul mablag'lariga aylantirish yo'li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarini qoplay olish qobiliyatiga aytiladi):

a) Lahzali likvidlik koeffitsienti va u quyidagi nisbat bo'yicha aniqlanadi:

Bunda: LA – bankning pul shaklidagi aktivlari

BM – bankning muddatsiz depozit hisob varaqlariga doir majburiyatlari

Bu me'yor bankning omonatchilari oldidagi majburiyatlarini shu lahzada bajara olish qobiliyatini anglatadi va uni Markaziy bank tomonidan kunlik balans asosida tezkor tarzda nazorat qilib boriladi. Bu koeffitsientning minimal miqdori 0,25 dan kam bo'lmasligi kerak.

b) Joriy likvidlik koeffitsienti likvid shakldagi bank aktivlarining talab qilib olingunga qadar bo'lgan hisob varaqlari buyicha va muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlar nisbati sifatida aniqlanadi:

Bunda: LA (1) – qaytarish muddati 30 kungacha muddatda berilgan bankning likvid aktivlari va kreditlar

BM (1) – qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan yo'qlab olingungacha turadigan majburiyatlari

Bu koeffitsientning minimal miqdori 0,3 ga teng

v) Kiska muddatli likvidlik koeffitsienti bankning qaytarish muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan depozitlar, olingan kreditlari va boshqa qarz majburiyatlariga nisbati tarzda aniqlanadi.

Bunda A – 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlari

D – muddati 30 kundan bir yilgacha bo'lgan jalb qilingan depozitlar va jalb qilingan resurslar

Bu kursatkichning xajmi 1 – ga teng bo'lishi kerak.

Bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan xatarni eng katta hajmi quyidagicha aniqlanadi.

Bunda YK – bank xatarining bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan so'mmasi qo'shilgan depozitlardan tashqari 75 foiz balansdan tashqari majburiyatlar. Bu davlat kafolatlangan kreditlariga tegishli emas.

Bu me'yorning yuqori chegarasi 0,25 ga teng.

Barcha katta kreditlarga to'g'ri keladigan xatarning eng yuqori hajmi quyidagicha aniqlanadi:

Bunda: JYKS – jami yirik kreditlar so'mmasi

Umuman bir qarz oluvchiga berilgan kreditlar qo'shilgan shu qarz oluvchiga nisbatan bergan, bank kapitalidan 15 foiz ortiq bo'lgan balansdan tashqari majburiyatlar so'mmasining 75 foiz jamlangan qarz katta kredit hisoblanadi. Bank uchun katta kredit toifaga kiradigan va bir qarz oluvchiga beriladigan kreditlar so'mmasini shu qarz oluvchining o'z mablag'lari so'mmasidan oshirmaslik tavsiya etiladi.

Bu me`yor bank kapitalining 5 barobaridan oshmasligi kerak.

Bir omonatchiga (kreditorga) to`g`ri keladigan xatarning eng yuqori me`yori olingan kredit yoki omonatning eng yuqori miqdori va bitta depozitorning depozit hisob varag`idagi qoldiq qiymatini bankning o`z mablag`lari miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

Bunda O – olingan kredit yoki omonatning eng yuqori miqdori va bitta omonatchining hisob raqamidagi, joriy raqamidagi va qimmatli qog`ozlar bo`yicha operatsiyalar qoldiqlari.

Ushbu me`yor uchun o`rnatilgan eng yuqori miqdor 1999 yilning 1 yanvaridan 2000 yilni 1 yanvarigacha – 0,50. Demak bu har yilga alohida belgilanadi.

Qimmatli qog`ozlar bilan bo`lgan operatsiyalarda o`z mablag`idan foydalanish ko`rsatkichi bankning oldi – sotti uchun harid qilgan nodavlat qimmatli qog`ozlari miqdorini o`z mablag`lariga nisbati bilan belgilanadi.

Bunda: KK – oldi – sotti maqsadida qimmatli qog`ozlarni sotib olishga yo`naltirilgan bankning o`z mablag`lari

AK – aksioner kapitali

Bankning boshqa banklar, korxonalar, tashkilotlar ustav fondiga quyadigan jami investitsiya so`mmasi miqdorining ulushi bank kapitalining 20 foizidan, Ustav fondining 10 foizidan oshirmaslik tavsiya etiladi.

Mazkur me`yor uchun belgilangan miqdor 0,5 ga teng

Bankning asosiy aksiyadorlari, uning raxbarlari, xodimlari va ular bilan bog`liq shaxslar bank xizmatlaridan imtiyozli asosda foydalanmasliklari va amaldagi qonunlarga rioya qilishlari talablaridan kelib chiqib daxldor shaxslar kursatkichi mavjud.

Kengrok ma`noda shunday shaxslarga kiritiladi:

- bank kengashi, bank boshqaruvi, taftish komissiyasi tarkibiga kirgan barcha shaxslar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari

- bank ustav fondining 10 foizidan ko'proq qismiga ega bo'lgan har qanday yuridik va jismoniy shaxslar, shu yuridik shaxslarning har qanday rahbarlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari

- qonunga ko'ra bank faoliyatini nazorat qiluvchi yuridik shaxslar va ularning boshqaruvchilari

Ularga imtiyozli sharoit yaratmaslik kerak deganda:

- boshqa mijozlardan talab qilinadiganidan kam hajmda foizlar, badallar, boshqa tulovlarni undirish yoki ta'minotni kam kabo'l qilish

- kreditni qaytarish muddatini yetarli asoslarsiz o'zgartirish

- o'z tabiatiga, maqsadiga va yul quyiladigan xatarga ko'ra bank daxldor bo'lmagan mijozlar bilan to'zmaydigan bitimlarni to'zish.

Tijorat banklari tomonidan ularning faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida daxldor shaxslarga kredit berish taqiqlanadi.

Bunda: KS – bitta daxldor shaxsga berilgan kredit miqdori

Bu kursatkich bank kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak.

Bank barcha daxldor shaxslarga beradigan kreditlarning umumiy so'mmasi bank ustav fondining 100 foizidan oshmasligi kerak.

Bunda: JKM – daxldor shaxslarga berilgan jami kreditlar miqdori.

7. Bank tizimi faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan iqtisodiy choralar.

Markaziy bank mamlakatning bosh banki, rahbar sifatida tijorat banklari faoliyatini boshqaradi, nazorat qiladi.

Jumladan, Markaziy bank mavzuning 6-savolida keltirilgan iqtisodiy me'yorlarga amal qilmagan banklarga tegishli qonun xujjatlari asosida quyidagi jazo choralarini qullaydi:

- Iqtisodiy me`yorlarni o`zgartirish
- Majburiy rezerv fondini oshirish
- Ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishni ta`qiqlash
- Xissadorlarga dividendlar to`lashni tuxtatib qo`yish
- Bank ustidan vasiylik o`rnatish
- Eng oxirgi chora ularga berilgan litsenziyalarni qaytarib olish

Markaziy bank tomonidan litsenziyalarni qaytarib olish banklar bajaradigan ayrim operatsiyalar bo`yicha yoki butun faoliyat bo`yicha bo`lishi mumkin. Litsenziyani qaytarib olinishi bank faoliyatini to`xtatilishini bildiradi.

Bank faoliyatini to`xtalishi «Banklar va bank faoliyati to`g`risida»gi Qonunda ham o`z aksini topgan bo`lib, uning 19-moddasida ushbu holat quyidagi hollarda amalga oshishi ta`kidlangan:

- aksiyadorlar yig`ilishi qaroriga ko`ra;
- Litsenziyani qaytarib olganda
- Bank bankrot deb e`lon qilinganda.

Shu kabi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 avgustdagi «Banklardagi depozit hisob varaqlaridan naqd pul to`lovlarini o`zluksiz ta`minlash kafolatlari to`g`risida»gi qaroriga binoan O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining ish yakunlarini ko`rib chiqish vaqtida aholi va xo`jalik yurituvchi subyektlarga banklarning depozit hisob varaqlaridan naqd pullarni kechiktirmay to`lash borasida o`rnatilgan tartib bir necha marta (oyiga 3 martadan ko`proq) bo`zilgan takdirda tijorat banklari xududiy bo`limlari va filiallarining raxbarlari egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi, naqd pul mablag`lari berishni muntazam kechiktirish xollari mavjud bo`lganida tijorat banklariga nisbatan qattiq javobgarlik choralari, xatto bank operatsiyalarini amalga oshirish xuquqini beradigan litsenziyani qaytarib olish choralari qullanilishi belgilangan.